

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

6 ЖИЛД, 3 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 6, НОМЕР 3

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 6, ISSUE 3



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№3 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2023-3>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тухтасинов Илхом

д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммаед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Юсупов Ойбек

масъул котиб, доцент (Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммаед

к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Юсупов Ойбек

отв. секретарь, доцент (Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Yusupov Oybek

Ass. prof. (Uzbekistan) - Senior Secretary

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Qobilov Usmon Uralovich ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI OBRAZLAR OLAMI VA BADIYYAT MASALASI.....	5
2. Abror MURTAZAYEV NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlarni matnini lingvistik ekspertiza qilishning turlari.....	12
3. Abdug'aniyeva Iroda Abbos qizi SPEECH ACT THEORY AND ITS CLASSIFICATIONS.....	19
4. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna O'ZBEK, RUS VA INGLIZ TILIDAGI FOLKLORNING DEMOOLGIK VA MIFOLOGIK PERSONAJLARNI TAQQOSLASH.....	24
5. Saliyeva Ziroat Zokirovna YOZISHNI ORQITISHNING XUSUSIYATLARI VA YONDASHUVLARI.....	29
6. Габбובה А.Қ., Алиева М.И., Мехтиева З. Х. ОСОБЕННОСТИ КОМПОСТИРОВАНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОТХОДОВ С ЧАСТИЦАМИ РАЗНОГО РАЗМЕРА.....	35
7. Нодира Аззамовна Исакова ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ ЎЗЛАШМАЛАРНИ ТАСНИФЛАШ ВОСИТАЛАРИ.....	40
8. Tagayeva Tamara Baxodirovna U.S.MAUGHAM BADIY USLUBINING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI.....	47
9. Усманова Салиха Юлдашевна, Хайдарова Гулбахор Юлдашевна ОСОБЕННОСТИ ИНТЕГРАТИВНО - ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ОБУЧЕНИЯ ГРАМОТЕ СТУДЕНТОВ НАЦИОНАЛЬНЫХ ГРУПП.....	53
10. Тагаева Сайёра Улашевна, Мустанова Шохиста Артиковна MUTTER/ ОНА КОНЦЕПТИНИНГБАДИИЙ МАТНЛАРДА ВОКЕЛАНИШИ.....	58
11. Hamroyeva Farida Faxriddinovna “BABYLON REVISITED” VA “IMON” NOVELLALARIDA MAVZUGA OID NARRATIVLI TRANSPOZISIYA XUSUSIDA.....	63
12. Shapsanova Feruza Muzaffarovna PESSIMISTIC MOOD TOWARD HUMAN NATURE DEPICTED IN THE NOVEL “THE UNICORN” BY IRIS MURDOCH.....	68
13. Buranova Lola Uktamovna FORMING THE SKILLS OF MONOLOGUE AND DIALOGUE SPEECH IN FOREIGN LANGUAGE.....	75
14. Umarova Oyzoda Solijonovna, Farhodova Shahzoda Umidovna INGLIZ TILI SHAKLLARINING SOTSIOLOGIY TADQIQI.....	81
15. Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o'g'li ALFRED DE MYUSSE ASARLARIDAGI BADIY ZAMON TASNIFI.....	86
16. Abdusalomova Lobar Akbar Qizi CH. AYTMATOV IJODI VA XX ASR SO'NGGI CHORAGIDAGI INGLIZ ADABIYOTSHUNOSLIGI (“Alvido, Gulsari!” qissasi misolida).....	90
17. Tursunova Parvina, Tuychiyeva Maxchexra, Abdullayeva Parvina O'QUV-PEDAGOGIK JARAYONINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH.....	97
18. Kadirova Dilfuza Alisherovna O'ZBEK TILIDA MAQTOV KONSEPTINING VERBALIZATSIYASI.....	102

19. Botirova Maxliyo O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA REKLAMA MATNLARI TADQIQIGA DOIR ISHLAR TAHLILI.....	106
20. Zakirova Madina Damirovna MAIN LINGUISTIC APPROACHES TO THE INVESTIGATION OF FOREGROUNDING.....	112
21. Бобоев Улаш Нейматович ЭФФЕКТИВНЫЕ СТРАТЕГИИ ПЕРЕВОДА СРЕДСТВ ШОК-ТЕЙМЕНТА В УЗБЕКСКИХ И ФРАНЦУЗСКИХ ПУБЛИЦИСТИЧЕСКИХ ТЕКСТАХ НА РУССКИЙ ЯЗЫК.....	120
22. Atabayeva Zarnigor Baxran qizi JAHON ADABIYOTIDA DEMONIZATSIIYA MOTIVI, UNING GENEZISI VA ANAMIYATI.....	126
23. Джураев Ботир Илхомович ИНГЛИЗ ТИЛИДА МИҚДОРИЙ АСПЕКТУАЛЛИКНИНГ СИНТАКТИК ИФОДАЛАНИШИ.....	133
24. Балясникова Марина Александровна К ЭТИМОГРАФИИ СИМВОЛА “РАДУГА” В ИНДОЕВРОПЕЙСКИХ ЯЗЫКАХ.....	138
25. Ташбекова Дилором Исмаиловна, Вохидова Нигора Абдузугуровна ПОНЯТИЕ «ЯЗЫК» В РУССКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX - НАЧАЛО XX ВЕКА).....	145
26. Roza Timonova, Khadicha Suyarova THE IMPACT OF LINGUISTIC PECULIARITIES IN ADVERTISING LANGUAGE: A STUDY ON PUNS, METAPHORS, AND SLOGANS.....	150
27. Ёринова О. ЧОРВАЧИЛИК ТЕРМИНЛАРИ ЁРТАСИДА ГИПОНИМИЯ ХОДИСАНИНГ ШАКЛЛАНИШИ.....	155
28. Камалходжаева Саида Саидахмадовна ПРАНК КАК ОБЪЕКТ СУДЕБНОЙ ЛИНГВИСТИКИ.....	160
29. Koziyeva Iqbol Komiljonovna KELIB SHIQISH TURKIY BO‘LGAN RUS FAMILIYALARI.....	163
30. Юнусова Диёра Аминовна СИНТАКСЫ, ВЫРАЖЕННЫЕ ОТНОСИТЕЛЬНЫМ МЕСТОИМЕНИЕМ THAT В ПОЗИЦИИ ЯДЕРНОГО ПРЕДИЦИРУЕМОГО КОМПОНЕНТА.....	170
31. Xudoyberdiyeva Gulmira Allaberdi Qizi AYRIM OMONIM TERMINLARNING LEKSIKOGRAFIK VA LINGVOSTATISTIK TAHLILI.....	175
32. Xolova Muyassar Abdulhakimovna SURXONDARYO VILOYATI SHEVALARINING O‘ZBEK MILLIY DIALECTAL KORPUSIDA REPREZINTATIVLIGI.....	180
33. Nilufar Abduraxmonova, Saodat Boysariyeva TABIIY TILNI QAYTA ISHLASHDA (NLP) OKKAZIONALIZMLARNING MORFEM TAHLILI.....	188



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Xolova Muyassar Abdulhakimovna


Termiz davlat universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrası

katta o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)

xolovam@tersu.uz

SURXONDARYO VILOYATI SHEVALARINING O'ZBEK MILLIY DIALECTAL KORPUSIDA REPREZINTATIVLIGI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.8249794>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek milliy shevalari korpusida sheva birliklarining reprezentativligi masalasi Surxondaryo shevalari misolida yoritib berilgan bo'lib, doimiy umumiy reprezentativlik qoidalari, bu qoidalarining umumiy va maxsus korpuslar uchun farqliliklari, milliy korpusda janralararo va registrlar bo'yicha o'z balansiga ega bo'lgan, lisoniy mikromodellarning maksimal aniqligiga doir aniq shartlar ishlab chiqmoq darkorligi haqida gap boradi. Bundan tashqari dialekt ma'lumotlarini korpusga asoslangan hujjatlashtirish yondashuvi, dialekt korpusi nafaqat tilni, balki til aloqasi modelini ham taqdim etish va o'rganishni osonlashtiradigan yangi turdagi ilmiy manba bo'lishi mumkinligi borasidagi qarashlar ham taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo viloyati, shevalar korpusi reprezentativligi, aloqa modeli, adabiy til va sheva birliklariga boy leksik, morfologik zaxira, dialectal grammatik birlik

Холова Муяссар Абдулхакимовна

f.f.f.d. (PhD) старший преподаватель

кафедры узбекского языкознания,

Термезского государственного университета

РЕПРЕЗЕНТАТИВНОСТЬ ДИАЛЕКТОВ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УЗБЕКСКОМ НАЦИОНАЛЬНОМ ДИАЛЕКТНОМ КОРПУСЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье представляется вопрос о репрезентативности диалектных единиц в корпусе узбекских национальных диалектов на примере сурхандарьинских диалектов, обсуждаются правила постоянной общей репрезентативности, различия этих правил для общего и специального корпусов, возможность выработки конкретных условий для максимальной точности языковых микромоделей, имеющих свой баланс между жанрами и регистрами в Национальном корпусе. В дополнение к корпусный подход к документированию диалектной информации, также были представлены взгляды на то, что диалектный корпус может быть новым типом научного ресурса, который облегчает представление и изучение не только языка, но и модели языковой коммуникации.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, репрезентативность диалектного корпуса, модель коммуникации, лексический, морфологический база, диалектная грамматическая единица, богатая литературным языком и диалектными единицами

Kholova Muyassar Abdulhakimovna
f.f.f.d. (PhD) Senior lecturer
departments of Uzbek Linguistics,
Termez State University. xolovam@tersu.uz

REPRESENTATIVENESS OF THE DIALECTS OF SURKHAN-DARYA REGION IN THE UZBEK NATIONAL DIALECT CORPUS

ANNOTATION

This article presents the question of the representativeness of dialect units in the corpus of Uzbek national dialects on the example of Surkhandarya dialects, discusses the rules of constant general representativeness, the differences between these rules for general and special corpora, the possibility of developing specific conditions for maximum accuracy of language micromodels that have their own balance between genres and registers in the National Corpus. In addition to the corpus approach to documenting dialect information, views were also presented that the dialect corpus can be a new type of scientific resource that facilitates the presentation and study of not only the language, but also the model of language communication.

Keywords: Surkhandarya region, representativeness of dialect corpus, communication model, lexical, morphological base, dialect grammatical unit rich in literary language and dialect units

KIRISH. Surxondaryo shevalari korpusini tuzishda yana bir muammolaridan biri uning reprezentativligidir (reprezentativlik – bu tadqiqot natijalarini u to'plangan jamlanma uchun ma'lum bir namunani jalb qilgan holda umumlashirish, namunaviy yig'ilgan tadqiqot vazifalari nuqtayi nazaridan muhim bo'lgan umumiy jamlanmaning parametrlarini aks ettirish xususiyati sifatida belgilanishi mumkin.).

Garchi tadqiqotning boshlanishida ushbu jarayonni amalga oshirish ko'zda tutilgan bo'lsa-da, konkret korpus projeklari har doim "himoyalash" va "xabar berish" kabi o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan taqdimotga ega bo'lish bilan to'qnash kelishi aniq, Masalan, Duglas Biber tomonidan yozilgan maqola bilan yaqindan tanishar ekanmiz, u tomonidan tuzilgan korpusga ma'lumotlar kiritish qoidalariga har doim ham ayni shu soha vakillarining amal qilmasligini, chetga chiqish holatlari kuzatilishini ta'kidlaydi. J.Lich bu borada Biberning nazariyalari inkor etilmasa-da, uni realizatsiyasiga doir tadqiqotlarning deyarli olib borilmaganligini aytib o'tadi[4].

Ma'lumki, doimiy umumiy reprezentativlik qoidalari haqida gap borar ekan, bu qoidalarning umumiy va maxsus korpuslar uchun farqliliklariga egaligini yodda tutmoq lozimdir[11]. Xususan, milliy korpusda janralararo va registrlar bo'yicha o'z balansiga ega, lisoniy mikromodellarning maksimal aniqligiga doir aniq shartlar ishlab chiqmoq darkorki, milliy korpus maxsus korpuslardan shu jihati bilan aniq farqlanib turadi.

Matnni muvozanatlash zamonaviy korpus lingvistikasida prezintativlik nuqtayi nazardan ma'nodoshligining taqdimoti sifatida tushunmoq darkordir va dialectal korpus tadqiqotchilari deyarli har doim ularning sinonimik juftliklariga duch kelishadi. Va maxsus korpuslarda ayni sinonimik qator taqdimotida qaysidir ma'noda muammolarning kelib chiqishi tabiiy holatdir [<https://www.clarin.eu/resource-families/reference-corpora>][6/7].

Dialektal korpus shakllantirilar ekan, hujjatlashtirishga asoslangan yondashuvni tanlash eng to'g'ri yo'ldir va bunda dialect korpusi nafaqat lisonni, balki uning sheva bilan aloqa modelini taqdim etishi hamda yangi ma'lumotlarni ko'rsatuvchi manba vazifasini o'tashi darkordir.

ASOSIY QISM. Biz dialekt ma'lumotlarini korpusga asoslangan hujjatlashtirish yondashuvini tanladik, bu shuni anglatadiki, dialekt korpusi nafaqat tilni, balki til aloqasi modelini ham taqdim etish va o'rganishni osonlashtiradigan yangi turdagi ilmiy manba bo'lishi kerak. Shimoliy Arizona universiteti professor Douglas Biber reprezentativlik til yoki shevaning qamrovi o'z ichiga

olgan darajaga bog‘liqligini va populyatsiyada turli o‘ziga xos til shevalarning o‘ziga xos taqsimoti [masalan, Texas va uning atrofida tarqalgan sheva birliklari mavjud matn tiplari]ni aniqlaydi. Bunday lingvistik repprezentativlik quyidagi shart va shroitlar asosida yuzaga chiqadi. Agarda til korpusi o‘zida matn tiplari diapazonini akslantirmasa, lingvistik bo‘linuvchanlik, ya’ni tarqalish chegarasini ham ko‘rsatmaydi. Bundan tashqari taqdimot korpus tarkibiga tanlangan “matn”larning soni va qamroviga bog‘liq[3].


Dialektal korpus repprezentativlik konsepsiyasi milliy-tarixiy hamda madaniy voqelikni hisobga olgan holda tadqiqot olib boorish va uning korpusdagi o‘rni, rolini alohida belgilab olmoq darkor. Bunda quyidagilarga e’tibor bermoq darkor, ya’ni:

Umumiy


- ✓ umumiy leksik ma’lumotlar bazasi;
- ✓ murakkab kompleksli variativ lingvistik vositalar;
- ✓ sheva hamda lahja qatlamlarini harr tomonlama akslantirish;
- ✓ yosh, jins, ijtimoiy kelib chiqish va boshqa xususiyatlar borasida keng qamrovli ma’lumotlar bazasi;
- ✓ Maxsus, ixtisoslashgan, iqtisodiy va folklore namunalarni taqdimoti;
- ✓ Migratsiya bilan bog‘liq mozaik joylashuv (hududiy ko‘chish orqali shevalarning tarqalish hududiy o‘zgarishi);
- ✓ Xronologik faktorlarni hisobga olgan holda taqdimot;
- ✓ U qadar katta bo‘lmagan va marginal (siyosiy-iqtisodiy, madaniy, e’tiqodiy oilaviy institutlarda “yashash” sharoitiga ega salbiy, inkor etilgan qarashlarga ega bo‘lgan qatlam respodentlari, ya’ni masalan, Gruzun tilida so‘zlovchilar orasida yahudiy millatiga mansub aholi nutqi yoki Sherobod tumanida istiqomat qiluvchi “Lo‘li”lar hududi aholisi nutqi).

Marina Beridze o‘zining “Gruziya dialektlari korpusidagi dialekt lug‘atlari” maqolasida gruzin dialektlari korpusi tarkibiga repprezentativlik xususiyatiga ega bo‘lgan va shu bilan birgalikda lug‘at shaklidagi matniga ega bo‘lmay faqat leksema izohli sheva birliklarini kiritib o‘tganini ta’kidlaydi[8]. Biz ham aynan shunday tajribaga suyangan holda yaxlit, xususan, paremiologik shaklga ega bo‘lgan birliklar – maqol, matal, iboralarni mavzuviy guruhlagan holatda nafaqat o‘zbek shevalari bazasiga [21], shuningdek o‘zbek milliy shevalari korpusi[22] tarkibiga kiritishni ma’qul deb hisoblaymiz. Bu jarayonda dialectal ibora qatnashgan gap korpusning mavzuviy, pasport, tekst tipi oynalariaro bir marotaba joylanadi va har safar aynan shu ibora bilan bog‘liq kontekstlar tarkibida repprezentativligi ta’minlanadi[3].

1-rasm



O‘zbek milliy korpusida repprezentativlik iborali matn misolida akatlanishi



O‘zbek milliy korpusida reprezentativlik iborali matn misolida akslanishi

Dialektal korpusning matn va lug‘at qismi o‘zida umumiy yaxlitlik kasb etadi, qaysiki lug‘at so‘zligi tarkibidagi birliklar orqali korpusda mavjud ma‘lumotlar uchun kalit vazifasini bajaradi. Ushbu korpusdagi til birliklari taqdimoti yechimi quyidagilarni qamrab olmog‘i darkor, birinchidan, o‘zbek shevashunosligi amaliyoti shunchaki “o‘tkinchi” ilmiy matnlarni tayyorlash uchun emas, balki uzoq muddatli ilmiy tadqiqotlar uchun xizmat qilmog‘i darkor. Sababi ekspeditsiyada talabalar tomonidan yig‘ilgan ma‘lumotlar yuqori kvalifikatsiyaga ega bo‘lgan olimlar tomonidan saralangan holda taqdim etilishi shevalar korpusida “umumiy kontekst” nomi ostida berilishi bilan ajralib turadi.

Hozirga qadar o‘zbek xalq shevalari lug‘atlari etnik aholi hududida olib borilgan ekspeditsiyalarning natijasi o‘laroq, dialektologiya sohasida chuqur va katta tajribaga ega bo‘lgan, aholining “sheva” hayoti bilan bog‘liq ijtimoi-iqtisodiy, siyosiy-madaniy jabhalardan yaqindan xabardor bo‘lgan olimlar tomonidan tuzilgan[2]. O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘izistonning janubiy tumanlari hamda Qoraqalpog‘iston hududlarida yashovchi qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalarida so‘zlovchi aholidan to‘plangan ma‘lumotlarga tayanib tuzilgan lug‘at shunday kitob shaklidagi lug‘atlardan biri sifatida qayd etib o‘tish joizdir[12]. Ayni kunda yashash tarzining keskin rivojlanishi bilan referentlarning[20] ushbu sheva birliklari til tarkibidan “chiqib ketish” chegarasida turibdi va bu kabi qimmatli ma‘lumotlarni “saqlab qolish”ga bo‘lgan ehtiyoj shevaga oid birliklarni leksema, so‘z, so‘z birikmasi, gap, abzats, bob shaklida internet tizimiga olib kirishni taqozo etadi.

Umuman, lug‘atlar haqida so‘z borar ekan, ular haqida alfavit ketma-ketligida joylashgan olam sifatida qabul qilamiz. Endilikda esa sheva birliklarini ketma-ketlikda taxlashni ularni bir korpusga solish orqali amalga oshirishimiz mumkindir. Shunday ekan bu imkoniyatlarni ishga solish barobarida shevalar korpusining ishlash bilan bog‘liq faqatgina alfavit tartibi emas, balki uning boshqa jarayonlarni ham amalga oshirishi mumkinligini esda saqlash lozimdir. Ya’ni bunda alohida leksema yoki so‘zdan kontekstga eltuvchi kalit so‘z vositasida foydalanish borasida o‘ylab olish lozimdir. Biz bilamizki, aksariyat lug‘atlarda, xususan, O‘zbek tilining izohli lug‘atida (keying o‘rinlarda O‘TIL) quyidagi ketma-ketlik kuzatiladi, ya’ni leksema (so‘zning infinitive shakli), undan so‘ng esa so‘zlik maqolasi kelishini ko‘rib o‘ish mumkin[2].

Masalan: zambur [f. – qovog‘ari] shv. Qovog‘ari. Zambur aridan asal olsa bo‘ladi-yu, lekin bu ziqna nosvoychidan sadaqa ham unmaydi. (N.Qobil. Unitilmas Sohillar)[18]. Ammo filologik lug‘atlar toifasiga kiruvchi o‘zbek xalq shevalari lug‘ati esa yuqoridagi keltirilgan fikrga mos keluvchi lug‘at birliklari [Masalan: ilä-çilä (ila-chila) (Qashqadaryo), ilāç (Buxoro) darhol, darrov “спазу, тот же час же”: qarasaṃ tiqilip kelāpti, ilä-çilä nānni qolturimğa tixtim (qarasam tiqilib

kelyapti, ila-chila qo‘ltig‘imga tiqdim)]dan tashqari leksemalarning barchasida ham so‘zlik maqolasi va leksema ma‘nosini kontekstda ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan misollarni ko‘rib o‘tib bo‘lmaydi. Zämbür//zämmür [1], zambur//zammur (Samarqand, Qashqadaryo) ari “osa” qarazammur, äsälzämmür[12].

Surxondaryo viloyati shevalari korpusida sheva birliklarining morfologik annotatsiyalash bilan bog‘liq muammolar va yechimlar.

Surxondaryo viloyati shevalari o‘zbek tilining tarkibiy qismi bo‘lganligi uchun ham agglyutinativ tillar tabiatiga egadir. Sheva birliklarining yuqori darajadagi lingvistik analizini yuzaga keltirish uchun jahon tajribasi morfologik tahlil usulidan foydalanganligini ko‘rib o‘tishimiz mumkin. O‘zbek milliy shevalar korpusining birinchi bosqichida birliklarning pasportiv, tematik, janriy, tiplarga bo‘lib korpusga matn holatida joylashtirish haqida so‘zlagan bo‘lsak[13/14], shevaga oid so‘zlar va so‘zshakllari ustida morfologik analizning olib borilishi ushbu tahlilni ichki strukturaviy o‘tkazilishini hisobga olgan holda yanada aniqlikka erishilishini kafolatlaydi deya baholaymiz. Morfologik analizator – lug‘atdagi alohida so‘z, so‘zshakllarni taqqoslovchi va so‘zlarning grammatik xususiyatlarini topuvchi algoritmlar majmuyi hisoblanib, morfologik analizator morfologik lug‘atlar yordamida tahlil qilingan jumladagi so‘zlarning ketma-ketligi, morfologik xususiyatini aniqlasa, sintaktik analizator esa shajara daraxti tuzishni amalga oshiradi. Morfologik analizning vazifasi matndagi har bir so‘zning qaysi turkumga mansubligini avtomatik tarzda muayyanlashtirish; so‘zlarning qaysi leksik-grammatik sinfga tegishlilikini aniqlashdan iboratdir[9]. Masalan, Gruzin tili flektiv va agglyutinativ tabiatli bo‘lib, yuqori darajadagi aniqlikka ega bo‘lgan morfologik tahlilga erishish uchun lug‘at tarkibiy qismlariga asoslanilgan. Buning uchun Shota Rustaveli ilmiy tadqiqot proyeksi doirasida “Gruzin tili lingvistik modeliga asoslangan avtomatik kombinatsiyalshgan izohli lug‘ati” ishlab chiqildi va ushbu lug‘at o‘z ichida semantic, morfologik, sintaktik maydonlarni qamragani holda aniqlash, tavsiflash, tahlillash va qiyoslash kabi analizlarni amalga oshirishni ko‘zda tutgan. GeoTrans – morfologik kompyuterlashgan programma tizimi o‘z ichida 100 000 leksemani olgan.

Shevalar korpusida morfologik analiz algoritmi. Shevalar korpusida morfologik analiz algoritmi uchun jamlanma quyidagicha taxlanadi: Har bir so‘zlik maqolasi o‘ziga xos raqamlar bilan belgilanadi – N; lemma yoki so‘z shakliga lemmaning fonetik varianti – so‘z (word V), negaki bitta lemmaga bir necha shevaga doir fonetik variantlar ulanishi mumkin: Ona – änä (ona) // enä (ena) // jenä (yena) // ženä (jena) yoki leksik variantlar taqdim etiladi: Ona – bibi (bibi) // biji (biyi) // äpä (apa) // ämä (ama) // aba (aba) // äjä (aya) // äža (aja).

Shevalar lug‘atini tuzish jarayoni to‘rt bosqichdan iborat bo‘ladi:

- Qo‘llanilayotgan dialectal lemmalar tahrirlash (agar ular mavjud bo‘lsa);
- Dialektal birliklarning adabiy til (standart til)ga asoslanilgan morfologik annotatsiyalash;
- Tilning shevaviy birliklari, lemmalari va boshqa belgilari haqida faraziy axborot yetkazishi mumkin bo‘lgan barcha muqobili topilmagan va notanish bo‘lgan so‘zshakllar klaster guruhlangan holda shakllantirilish;
- Morfologik analizatorning eng maqbul bo‘lgan yangi lemma, so‘z, so‘zshakl va so‘z birikmalari borasidagi gipotezalarni baholash.

Dialektal matnlarni lug‘aviy boyishini nazarda tutgan holda avtomatik annotatsiyalash so‘zshakllarning yangi-yangi variatsiyalarining mavjudligini inkor etmasligi darkor, ya‘ni bunda asosiy e‘tibor qaysi lahjada nechta unililarning variantlari borligiga emas, balki umumiy variantlarning barchasini qamrashi kerak bo‘ladi. Fonetik, ayni tovushli variatsiyalar o‘zbek tili shevalarida biz bilamizki, umumiy variantlari bilan hisoblab chiqqanda quyidagi tartibda analiz qilinadi:

- a ~ ä, a, ä;
- u ~ -ü, -u;
- i ~ -i, -ï, -i:, -i:;
- o‘ ~ -o, -ö;

ε – [03F5 yunikodli] old qator, oʻrta keng, lablanmagan boʻlib, Surxondaryo shevasida uchramaydi. Shu bilan bir qatorda transkripsion belgilar jahon standarti boʻyicha lotin grafikasiga asoslangani holda undoshlar tizimida quyidagicha transkripsion belgilarda farqlar sezildi: y ~ j; gʻ ~ γ; j ~ ž; ch ~ č; sh ~ š; ng ~ ŋ va hokazo.

Shevalar korpusida **fonetik, adabiy tildan tovush nuqtayi nazaridan farqlanuvchi variatsiya: erta-indin** [izoh: hafta qismi] – 1) ertä-indin; 2) erta-indin; 3) jertä-indin; 4) jerta-indin; 5) ertä-innin; 6) erta-innin; 7) jertä-innin; 8) jerta-innin; 9) jertän-indin; 10) jertan-indin; 11) jertän-innin; 12) jertan-innin.

Shevalar korpusida soʻzshakllar tarkibidagi grammatik farqlanuvchi variatsiya: -lar – -när, -nar, där, -dar,-tär,-tar, -ar, -q [qipchoq lahjasi, Surxondaryo shevasi]; -lä, -lig, -lug,-gilä, -är, -ä [qarluq lahjasi, Toshkent shevasi]; -la, lä [oʻgʻiz lahjasi, Xorazm shevasi]; -nä, na [qarluq lahjasi, Namangan shevasi].

Shevalar korpusida shevaga oid soʻzlarning morfologik tahlil jarayoni tokenizatsiya > lemmatizatsiya > stemming bosqichlarida amalga oshiriladi[10], yaʼni korpus tizimi matnni avvalo tokenlarga (asos va qoʻshimchalarning barchasi) ajratib chiqadi, soʻng barcha birliklarning lemma(bosh shakllar)larini aniqlaydi va turkumlarga mos kelishini tahlillaydi va stemming bosqichiga (asos va qoʻshimchalarning alohidaligi) uzatadi. Masalan: Bäländ täylar tavrīgä Jerlär titrär yāvriga...[19].

Qisqa matn: Bäländ täylar tavrīgä Jerlär titrär yāvriga...

1. Bäländ täy/lar tavr/i/gä Jer/lär titrär(moq)/r yāvri/i/ga... [13 ta token]
2. – Baland [sifat] togʻ[ot]lar tavr [ot] i/ga Jer [ot] lar titra[feʼl]r jābr [ot] i/ ga...
3. – Baland [sifat] togʻ[ot]lar [ot., koʻp. q.] tavr [ot] i [ot.,eg.q.]/ga [ot., joʻn.kel.]

Jer [ot] lar [ot., koʻp. q.] titra[feʼl]r [feʼl., zam., oʻtg. zam.] jābr [ot] i [ot.,eg.q.]/ga [ot., joʻn.kel.]...

Shevalar korpusi sistemasida adabiy til va sheva birliklari tahliliga ajratilgan morfologik analizator programmasi alohida-alohida taqdim etiladi. Har ikki holatda ham soʻzshakllar analizi algoritmi bir xil protses sifatida qabul qilinadi:

Birinchiidan, tahlillanayotgan sheva birligining bazadagi barcha lemma variantlari bilan qiyosiy qidirish imkoniyati mavjud va shakliy mos keluvchi Grammatik qoʻshimchalarga solishtirilgan holda turkumlar bogʻligʻidan kelib chiqib analiz qilinadi. Lemmalar asoslanilgan jadval asosida koʻriladigan soʻzshakllar tarkibidan ajratilgan holda tahlillanadi [BazAfix / DiaAfix]. Bu holatni feʼl soʻz turkumi grammatik shakl, lugʻaviy shakl yasovchi, oʻzgalovchi misolida koʻrib oʻtamiz. Feʼl soʻz turkumida oʻzgalovchilar oʻz navbatida 4 ga boʻlinadi (eslatma: feʼl soʻz turkumi nisbat birligi F_1 bilan belgilangan, oʻzgalovchilar F_2 shakli bilan beriladi):

Sof feʼl – $F_{2/0}$

Harakat nomi – $F_{2/1}$: birinchi raqam feʼllik vazifaviy shakli – F_2 , ikkinchi raqam vazifa shaklni hosil qiluvchi tur – $F_{2/1}$, agar sheva birligining fonetik variant mavjud boʻlmasa, / ajratuvchi belgidan soʻng raqam orqali beriladi – **-š – $F_{2/1/1}$** , shevaga oid affiksning variativligi kuzatilganda, { } ichida raqam ostida beriladi – **-iš – $F_{2/1/2\{2\}}$** . Shu oʻrinda harakat nomi shakli – **-š – $F_{2/1/1}$** ; **-iš – $F_{2/1/2\{1\}}$** , **-iš – $F_{2/1/2\{2\}}$** , **-üş – $F_{2/1/2\{3\}}$** , **-iš – $F_{2/1/2\{4\}}$** [16].

Shu oʻrinda harakat nomi va birgalik nisbati shaklidagi omonimlik xususiyatini sunʼiy intellect berilgan shifrlar (**-š – $F_{1/4/1}$** ; **-iš – $F_{1/4/2\{1\}}$** , **-iš – $F_{1/4/2\{2\}}$** , **-üş – $F_{1/4/2\{3\}}$** , **-uš – $F_{1/4/2\{4\}}$**) orqali farqlilikni toʻaqonli ajratish mumkinligini taʼkidlash lozim. Yani yuqorida keltirilgan dasturlash jarayonida ikkinchi shifr affiksning umuman farqli ekanligini aniqlaydi. Shunday Grammatik omonimlik boshqa affikslar oʻrtasida ham xuddi shu holatda hal qilinadi. **-v – $F_{2/1/3}$** ; **-üv – $F_{2/1/4\{1\}}$** , **-uv – $F_{2/1/4\{2\}}$** , **-iv – $F_{2/1/4\{3\}}$** , **-iv – $F_{2/1/4\{4\}}$** ;

Sifatdosh – $F_{2/2}$. Bunda birinchi raqamni F_2 –felning vazifa shakl umumiyliqi sifatida, ikkinchi “/2” soʻng keltirilgan raqamni vazifa shakl turi sifatida, uchinchisi raqam sifatdoshning zamon shakli sifatida talqin qilinmogʻi darkor. **Oʻtgan zamon shakli – $F_{2/2/0}$.** **-gän – $F_{2/2/0\{1\}}$** , **-gan – $F_{2/2/0\{2\}}$** , **-gän – $F_{2/2/0\{3\}}$** , **-kän – $F_{2/2/0\{4\}}$** , **-kan – $F_{2/2/0\{5\}}$** , **-kän – $F_{2/2/0\{6\}}$** , **-qan – $F_{2/2/0\{7\}}$** , **-qän – $F_{2/2/0\{8\}}$** , **-yan – $F_{2/2/0\{9\}}$** , **-yän – $F_{2/2/0\{10\}}$** . **hozirgi zamon shakli – $F_{2/2/1}$.** **-ätkän – $F_{2/2/1\{1\}}$** , **-äjätkän – $F_{2/2/1\{2\}}$** , **-äjätkän – $F_{2/2/1\{3\}}$** , **-äjätkän – $F_{2/2/1\{4\}}$** , **ajätgan – $F_{2/2/1\{5\}}$** , **-atiryän – $F_{2/2/1\{6\}}$** , **-atiryän – $F_{2/2/1\{7\}}$** ;

kelasi zamon shakli – $F_{2/2/2}$. **-gič** – $F_{2/2/2\{1\}}$, **-kič**, – $F_{2/2/2\{2\}}$ **-qič** – $F_{2/2/2\{3\}}$, **-yič** – $F_{2/2/2\{4\}}$, **-adiyān** – $F_{2/2/2\{5\}}$, **-ävli** – $F_{2/2/2\{6\}}$, **-üvli** – $F_{2/2/2\{7\}}$, **-uvli** – $F_{2/2/2\{2\}}$ va hokazo.

Ikkinchidan, har bir lemmalar uchun lugʻat tarkibidan mos keluchi lemma qidirib topiladi [LemVoc / DiaWordVoc].

Uchinchidan, har bir lemma varianti [BazAfix/DiaAfix] tablitsaga muvofiq soʻzshakl markeri [RuNu], soʻzshakl uchun maxsus belgilangan marker [IDMF], qisqartma birliklarning soʻzshakl hosil qiluvchi belgilangan nomlanishi [LexFeat_1] topish va umumiy soʻzshaklga bogʻlash.

Toʻrtinchidan, agarda aniqlangan lemma biror-bir lemmalarga muvofiqlashmaganligi soʻzning mazkur lugʻat soʻzligidan joy olmaganligiga ishora qiladi. Bu holatda berilgan lemma variant soʻzshakl bilan birgalikda faraziy shakllangan leksema yangi model sifatida qabul qilinmogʻi darkor. Basharti generatsiya muvaffaqiyatli kechsa, bu faraz keyinchalik morfologik analizatorlar leksemalari tarkibiga kiritiladi.

Beshinchidan, muvaffaqiyatli amalga oshirilgan tahlil natijalari quyidagi holatda xotirada saqlanadi:

- ✓ Soʻz shakl {lemma 1, turli variant 1} – {lemma erta, variant jertä};
- ✓ Soʻz shakl {lemma 2, turli variant 2} – {lemma ertaga, variant jertan}
- ✓ Soʻz shakl {lemma 3, turli variant 3} – {lemma erta-indin, turli variant kunarqayin}

Yoki

- ✓ Soʻz shakl {lemma 1, turli variant 1} – {lemma erta-indin, variant ertä-indin};
- ✓ Soʻz shakl {lemma 1, turli variant 2} – {lemma erta-indin, variant jertä-indin};
- ✓ Soʻz shakl {lemma 1, turli variant 3} – {lemma erta-indin, variant jertä-innin};
- ✓ Soʻz shakl {lemma 1, turli variant} – {lemma erta-indin, variant jertän-innin};
- ✓ {bunda maksimum 12 ta va undan ortiq variantlar berilishi mumkin}

Bundan tashqari shevalarning bazaviy lugʻati lemmalar hisobiga quyidagi sxemada toʻldirilib boriladi:

Agarda aniqlangan lemma tavsifiy xarakteristika jihatidan lugʻat tarkibida muqobili topilishi, shuningdek ayni shuning kabi soʻzshakl markeriy belgilar muvofiqligi identifikatorning yasalishiga (derivatsiya), yangi leksemalarning paydo boʻlishiga, lakunalarning adabiy tilga olib kirilishiga doir gipotezani oshirilishiga xizmat qiladi[15].

Mabodo leksemaga mos keluvchi hech boʻlmaganda bittagina lemma topilsa, sanab otilgan toʻrtinchi tahlil mos xulosaga ega boʻlamiz. Muvaffaqiyatli natija ega boʻlmagan muvofiqlik kichik birliklar darajasiga qadar tushiriladi hamda talab etilayotgan affikslar qatori ikkidan kam natijani xulosalaganda 5 fikrga, bu jarayon kuzatilmasa 3 fikrga qaytamiz.

Korpus algoritmi paradigmalarining geterogen xususiyatlarini taʼminlar ekan (yaʼni ularning muvofiqlashuvi yoki muvofiqlash xususiyatining inkori), farazlarning mahsuldorligi foizi past natijani qayd etsa, bu gipoteza inkor etiladi, yaʼni natija:

muvaffaqiyatli natija;

muvaffaqiyatsiz natija sifatida koʻrsatkichlarini koʻrsatadi.

Tizim oʻzida adabiy til, shevalarlar oid leksemalar, soʻzlar, lakunalar shu bilan bir qatorda yangi shevaga oid birliklarini ham tizimga qabul qilish imkoniyatiga ega boʻlish kerak. Korpus algoritmi notanish yozuvlar uchun bir yoki bir nechta soʻzshakllarni solishtirib koʻradi hamda ichki tizim mavjud bazadagi birliklarni realizatsiyalaydi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, vaqtlar oʻtishi bilan zamonaviy tilshunoslikda barcha lisoniy va til birliklariga hamda uning, asosan, grammatik tabiatiga katta eʼtibor qaratilmasdan, aksincha sheva leksema lugʻatlardagi lingvodidaktik, lingvokulturologik, psixolingvistik, etnolingvistik hamda, xususan, amaliy xususiyat kasb etishiga eʼtibor qaratadigan payt yetib keldi. Endi sheva leksemalari va soʻzlaridan shunchaki lugʻat soʻzligini ochib beruvchi birlik sifatidagi bir qism emas, badiiy matnning “qimmatli matosi” sifatida qabul etmogʻimiz darkor. Shevalar lugʻatining morfologik baza maʼlumotlar bilan toʻldirilishi, boyitilishi adabiy til va dialectal matnlarning morfologik analizini oshirishdagi optimal va perspektiv yoʻllaridan biri boʻlib xizmat qiladi. Oʻzbek milliy shevalari korpusi materiallarini morfologik annotatsiyalash konsepsiyasi oʻzida matnlarga ham adabiy til doirasida, ham shevaviy doirada yondashuvni, boy leksik, morfologik

zaxira, umumiy standart til hamda dialect uchun grammatik birliklar variativligi qamroviga ega bo'lgan holatida annotatsiyalash strategiyasiga to'laqonli ega bo'ldi deb hisoblash mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulhakimovna K. M. Transcription in the corpus of the uzbek national boysun dialect (on the example of Baysun district "j" dialects) //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 5. – С. 844-847.
2. Abdulhakimovna X. M. Surxondaryo shevalari korpusiga sheva matnlarini ichki tizimga kiritish prinsiplari: //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1. – С. 39-45.
3. Abdulhakimovna K. M. Software and data entry principles of the online dialect database // Current research journal of philological sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 46-53.
4. Biber Douglas Representativeness in corpus design. In: Literary and Linguistic Computing, 8, – P. 243-257 (1993)
5. Sinclair J. Preliminary recommendations on Corpus Typology. Vers.: of 05., Y. 1996/
Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки.
6. Leech. G.: The Importance of Reference Corpora, Lancaster University. In: <http://www.uzei.com/modulos/usuariosFtp/conexion/archivos59A.pdf>
7. Leech, G.: New resources, or just better old ones? The Holy Grail of representativeness. In: Corpus Linguistics and the Web. Rodopi, Amsterdam, – P. 133-149. (2007) <https://www.clarin.eu/resource-families/reference-corpora>
8. Marina Beridze, Liana Lortkipanidze, David Nadaraia. Dialect Dictionaries in the Georgian Dialect Corpus/ Arn. Chikobava Institute of Linguistics, Georgia/ <http://mygeorgia.ge/gdc>
9. Менглиев Б. и др. Морфологический анализ и синтез словоформ в лингвистическом анализаторе // Журнал языка и лингвистических исследований. – 2021. – Т. 17. – №. 1. – С. [558]-564.
10. N.Abdurahmonova Kompyuter lingvistikasi. Nodirabegim nashriyoti. –Т.: 2021. –В. 91. – В.1ar. 394.
11. Sinclair J. Preliminary recommendations on Corpus Typology. Vers.: of 05., Y. 1996/
Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки.
12. Sh.Sh. Shoabdurahmonov tahriri ostida. O'zbek xalq shevalari lug'ati. Fan. 1971. – В. 409. – В. 110.
13. Холова М. Поисковые жанры текстовых сообщений и паспортные метрики в корпусе диалектов (Байсунский район на примере диалектов со звуком "J") // Журнал перспективных исследований в области динамических систем и систем управления. – 2020. – Т. 12. – №. 6. – С. 1103-1107.
14. Холова М. А. Boysun shevasi onlayn ma'lumotlar bazasi (qidirish va saralash imkoniyatlari asosida) // Международный журнал искусство слова. – 2021. – Т. 4. – №. 1-1.
15. Холова М. А. O'zbek shevalarining standart tilga munosabati va til tizimidagi o'rni (Boysun tumani "j" lovchi shevalar misolida) //Международный журнал искусство слова. – 2020. – Т. 3. – №. 5.
16. Xolova M. Dialektal korpusning fonetik metarazmetkasi haqida ayrim qaydlar //Prospects of Uzbek applied philology. – 2022. – Т. 1. – №. 1.
17. Холова М. А. Boysun shevasi onlayn ma'lumotlar bazasi (qidirish va saralash imkoniyatlari asosida) // Международный журнал искусство слова. – 2021. – Т. 4. – №. 1-1.
18. O'zbek tilining izohli lug'ati. II tom. O'zbekiston. – Toshkent. 2020. – В. 671. – В. 127.
19. Sh.Boltayev. Malla savdogar. –Т.:2019. 258-b.
20. <https://sanstv.ru/dict/референт#>
21. <https://dialect.uz/>
22. <http://dialectcorpora.uz/>
23. Oаққуратно%20выполнял%20задания%20Батманова

4. D. Sulevmanov, A. Gatiatullin, N. Prokopyev and N. Abdurakhmonova, "Turkic Morpheme Web Portal as a Platform for Turkology Research," 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), Tashkent, Uzbekistan, 2020, pp. 1-5, doi: 10.1109/ICISCT50599.2020.9351500.
5. <https://uzbekcorpus.uz/>
6. Koskenniemi, K. (1983). Two-Level Model for Morphological Analysis. International Joint Conference on Artificial Intelligence.
7. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati/ A. Hojiyev, A. Nurmonov, S. Zaynobiddinov va boshq. – T.: 2001
8. А.В. Чемышев Динамический лексикон: компьютерное представление моделей словообразования // *Turklang*, 2017 (II). – P.224.
9. Yuldashev J. Usmon Nosir she'riyati lingvopoetikasi : Filol. fan. falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati 2023.
10. Abduraxmonova, N. Z. "Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) il dis. aftoref." (2018).
11. Alessandro Agostini, Timur Usmanov, Ulugbek Khamdamov, Nilufar Abdurakhmonova, and Mukhammadsaid Mamasaidov. 2021. UZWORDNET: A Lexical-Semantic Database for the Uzbek Language. In Proceedings of the 11th Global Wordnet Conference, pages 8–19, University of South Africa (UNISA). Global Wordnet Association.
12. Abdurakhmonova N, Tuliyeu U. Morphological analysis by finite state transducer for Uzbek-English machine translation/*Foreign Philology: Language. Literature, Education*. 2018(3):68.
13. Abdurakhmonova N, Urdishev K. Corpus based teaching Uzbek as a foreign language. *Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics (J-FLTAL)*. 2019;6(1-2019):131-7.
14. Abdurakhmonov N. Modeling Analytic Forms of Verb in Uzbek as Stage of Morphological Analysis in Machine Translation. *Journal of Social Sciences and Humanities Research*. 2017;5(03):89-100.